

# QURILISH ISHLARI UCHUN PUDRAT SHARTNOMASI

2022 й. «20» 6

2022-208-13-181-OB-

СОҲ

III.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor J.Narimov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "SANJAR DIYOR BIULDING" MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.Qozoqboev ikkinchi tomondan Choykul OFY Shayx qal'a-3 ko'chasi yo'lining 0-0,64 km qismini ta'mirlashga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

## 1. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada tariflar qo'llaniladi:

"ijro hujjatlari": - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar:

"qurilish maydoni": Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasini ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi.

"vaqtinchalik ishlar": Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo'lgan har tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

"berkitilgan ishlar": - sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar: shartnomani narxini bo'lib chiqish: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo'yicha ob'ektni umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

## II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Choykul OFY Shayx qal'a-3 ko'chasi yo'lining 0-0,64 km ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tender natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (2022 yil "14" iyundagi "97973" son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda (121 000 000) so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:  
qurilish qiymati va ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sabab bo'lganda;  
ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;  
ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.



5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### **IV. Pudratchining majburiyatlari**

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga “\_1\_” ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50%ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- “\_2\_” ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash;

- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- qurilish tavakkalchiligini sug'urta qilish.

Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydonini qo'riqlanishini ta'minlash;

qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash.

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan (qurilish ishlarining 50 %dan ko'p bo'lmagan) zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **V. Buyurtmachining majburiyatlari**

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofik ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga 3 ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

#### **VI. Ishlarni bajarish muddati**

10. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab:



keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tender natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 30\_kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

## VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi bu 36 300 000 (o'ttiz olti million uch yuz ming) so'm tashkil etadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (3-ilova)

16. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatning 90% gacha doirasida amalga oshiriladi.

17. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin yoki mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (bir yil) tamom bo'lgandan keyin ishlar qiymatining 10% gacha miqdorida, amalga oshiriladi:

18. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

19. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

## VIII. Ishlarni bajarish

20. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – Texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

21. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

22. Pudratchi Texnik auditor ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

23. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

24. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini qurilishda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

25. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.



27. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

28. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

29. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

30. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

31. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

32. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

33. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

34. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

35. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasi javobgar hisoblanmaydi.

36. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelshilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 35 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

37. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

38. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.



ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

49. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarining kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 1 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomiining kafolat muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

50. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

51. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

#### **XV. Nizolarni hal etish tartibi**

65. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

66. Mazkur shartnoma imzolangan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

67. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

68. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

69. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

70. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

71. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

72. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

#### **XVI. Korrupsiyaga qarshi shartlashuv**

8.1 Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga qo'llangan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi korrupsiyaga qarshi bo'lgan tegishli shartlar va talablarini tushunish haqida bir-birini ishonitiradi va ularga amal qilishni kafolatalaydi. Xaridor ushbu shartnomada amalda bo'lgan butun davr moboynda u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktor, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) sotuvchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, sotuvchi korxonaning hamda O'zbekiston



Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarning korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.


### XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari

#### Buyurtmachi:

Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi  
Bank: Markaziy bank Toshkent  
H/R 100022860352047045204110008  
MFO 00014  
INN 204622562

Rahbar:

J.Narimov



#### Pudratchi:

“SANJAR DIYOR BIULDING” MCHJ  
Bank: ATB Xalq bank Amudaryo tumani  
H/R: 2020 8000 0007 2301 0001  
MFO: 00634  
INN: 304636834

Rahbar:

A.Qozoqboev





## **Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofigligi to'g'risida huquqiy xulosa**

**1. Loyhaning turi:** Shartnoma

**2. Loyihaning nomi:** Pudrat shartnomasi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 16-iyun kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

**4. Loyihaning mazmuni:** Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor J.Narimov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "SANJAR DIYOR BIULDING" MCHJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.Qozoqboev ikkinchi tomondan Choykul OFY Shayx qal'a-3 ko'chasi yo'lning 0-0,64 km qismini ta'mirlashga doir mazkur pudrat shartnoma loyiha ishlab chiqilgan.

**Shartnoma summasi:** 121. 000. 000 so'mni (bir yuz yigirma bir million) so'm.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subiektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi № 670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Xo'jalik yurituvchi subiektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi № 670-I-son Qonunining 24- moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga mos ravishda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me'yorlariga javob beradi. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqoralik Kodeksining Pudrat shartnomasi munosabatlarni tartibga soluvchi 37-bobi jumladan, 631,632,636,638-moddalari va



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi PF-6313-sonli farmoni bilan tartibga solinadi.

2. Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me‘yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog‘liq shartlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subiektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risda”gi qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 3-sentabrdagi “Kapital qurilishda iqtisodiy munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 395-sonli qaror me‘yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to‘liq mos keladi.

3. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnoma talablarini bajarishga ta’sir ko‘rsatuvchi hech qanday omillar, davlat boshqaruv organining qonuniy yoki boshqa ko‘rsatmalari mavjud emas. Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

#### XULOSA:

Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 16-iyundagi “Pudrat shartnomasi” **qonunga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.**

Amudaryo tumani adliya bo‘limi

YXKM bosh yuriskonsulti:



J.O.Avezov